

**2018 yilning yanvar-aprel oylarida
Qoraqoʻgʻiston Respublikasida
sanoat ishlab chiqarilishi**

RAQAMLAR:


- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **2895,7** mlrd.soʻmni,
- Oʻsish surʻati **112,9 %**ni tashkil etdi
- Isteʼmol tovarlari ishlab chiqarishning oʻsish surʻati- **104,0%**
- Sanoat ishlab chiqarishning kichik biznesdagi ulushi-**11,6 %**

Dastlabki maʼlumotlar boʻyicha 2018 yilning yanvar-aprel oylarida respublika korxonalaridan tomonidan 2895,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan oʻsish surʻati 112,9% ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmining oʻsishining asosiy omili boʻlib, qayta ishlash sanoatida ishlab chiqarish hajmining 11,8% ga, toʻgʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 17,0 % ga, elektr, gaz, bugʻ bilan taminlash va havoni konditsiyalashning 15,7% ga va suv bilan taminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning-75,2% ga oʻsishi hisoblanadi.

**2018 yilning yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat
turlari boʻyicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.**


(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan %)



Korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi ishlab chiqaradigan sanoatda 2566,2 mlrd.soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning 88,6 % ni, elektr, gaz, bugʻ bilan taminlash va havoni konditsiyalashda 183,9 mlrd.soʻmni (6,3% ni), toʻgʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 105,9 mlrd.soʻmni (3,7% ni), suv bilan taminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda 39,7 mlrd.soʻmni (1,4% ni) tashkil etdi.


Tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish va turlarini kengaytirish, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini 2017 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 4,0 % ga o'sishiga tasir ko'rsatdi va jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 11,6 % ni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari
(2018 yil yanvar-aprel oylari uchun)




2017-yilning yanvar-apreliga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 2018 yilning yanvar-aprel oylarida 26,3 % dan 27,1 % ga oshishi kuzatilmoqda.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan % da
(yanvar-aprel oylari uchun)



Hududlarning sanoat saloxiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida Amudaryo (2017 yilning yanvar-apreliga nisbatan 121,9%ga), Mo'ynoq (119,6%ga), Qonliko'l (117,2%ga), Taxiato'sh (116,7%) va Qorao'zak tumanlarida (115,6%ga) ishlab chiqarish hajmining sezilarli darajada oshishi taminlandi.

Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari
(2018 yilning yanvar-aprel oylari uchun)
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)



Kichik tadbirkolik subektlari sanoat faoliyatining keskin o'zgarib borishi natijasida ular tomanidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,0% ga oshishini taminladi va jami sanoatda kichik biznesning ulushi 11,8% tashkil etdi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun ma'sul: T. Gulmurzaeva
 Aloqa telefoni: (0371)2308209